

TRANSFORMATSIYA TUSHUNCHASINING FALSAFIY KATEGORIYALAR TIZIMIDAGI O'RNI

Berdibaev Aydos Tolibaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universitet tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18629830>

Transformatsiya tushunchasi falsafada borliqning o'zgarish, rivojlanish va yangilanish jarayonlarini ifodalovchi asosiy kategoriyalardan biri sifatida muhim o'rin tutadi. U nafaqat sotsiologik yoki iqtisodiy tushuncha, balki falsafiy tafakkurda insoniyotning dinamik mohiyatini anglashning markaziy vositasi sifatida qaraladi. “Transformatsiya” atamasi lotincha “transformare” — shaklni o'zgartirish, “ko'rinishni almashtirish” ma'nosini bildiradi. Falsafiy jihatdan bu tushuncha mavjud bir holatdan boshqasiga o'tish, mazmuniy sifat o'zgarishlarini amalga oshirish jarayonini anglatadi. Shu bois transformatsiya kategoriyasi “rivojlanish”, “o'zgarish”, “harakat”, “evolyutsiya”, “inqilob” kabi boshqa falsafiy tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etiladi.

Falsafiy kategoriyalar tizimida transformatsiya tushunchasi dialektik qonuniyatlar bilan bevosita aloqador bo'lib, ayniqsa, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkorni inkor orqali rivojlanish kabi tamoyillarni amaliy ko'rinishda ifodalaydi. Transformatsiya jarayonida mavjud tizim yoki hodisa o'zining ichki ziddiyatlarini bartaraf etish orqali yangi sifat holatiga o'tadi. Shu nuqtai nazardan, transformatsiya faqat tashqi shakl o'zgarishi emas, balki mazmuniy, mohiyat darajasidagi yangilanishni bildiradi. Falsafiy jihatdan bu jarayon substansiyaning o'zgarish qobiliyatini, mavjudlikning doimiy yangilanish holatini aks ettiradi. Har qanday ijtimoiy, tabiiy yoki ma'naviy tizim transformatsion jarayonlar orqali o'z hayotiyiligini saqlab qoladi va o'zini o'zi yangilab boradi.

Transformatsiya kategoriyasi shuningdek, ontologik va aksiologik jihatdan ham tahlil qilinadi. Ontologik jihatdan u borliqning mavjud bo'lish usullaridan biri sifatida — ya'ni “statiklik” va “dinamiklik” o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Aksiologik nuqtai nazardan esa, transformatsiya qadriyatlarining yangilanishi, madaniyatning moslashuvchanligi va inson faoliyatining ma'naviy yo'nalishini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Insoniyat tarixida har bir sivilizatsion bosqich o'zining transformatsion xususiyatlari bilan ajralib turgan. Masalan, agrar jamiyatdan industrial jamiyatga, undan esa axborotlashgan jamiyatga o'tish bu nafaqat iqtisodiy yoki texnologik, balki falsafiy jihatdan borliqni anglash shaklining o'zgarishi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning yangi asosda qayta qurilishidir.

Transformatsiya tushunchasi shuningdek, subyekt va obyekt munosabatlarining yangi talqinini keltirib chiqargan. Falsafiy jihatdan subyekt — bu o'zgarishlarni amalga oshiruvchi faol kuch, obyekt esa o'zgarishga uchraydigan narsa yoki tizimdir. Transformatsiya jarayonida bu ikki qutb o'zaro ta'sirda bo'lib, subyekt o'z faoliyati orqali obyekttni o'zgartirar ekan, ayni vaqtda o'zi ham yangilanadi. Shu ma'noda, transformatsiya inson faoliyatining o'zini o'zgartiruvchi mohiyatini namoyon etadi. Bu jarayon faqat tashqi dunyoni emas, balki insonning ichki dunyosini, uning ongini, qadriyatlarini, dunyoqarashini ham o'zgartiradi. Shu bois transformatsiya kategoriyasi shaxs, jamiyat va madaniyatning o'zaro bog'liqligini, ularning tarixiy dinamikasini tushuntirishda asosiy falsafiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, transformatsiya falsafiy kategoriyalar tizimida universal, kompleks va dinamik tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. U mavjudlikning o'zgaruvchan tabiati, inson faoliyatining ijodiy mohiyati va jamiyatning uzluksiz rivojlanish qonuniyatlarini anglashga yordam beradi. Shu boisdan, zamonaviy falsafada transformatsiya tushunchasi sivilizatsion o'zgarishlar, madaniy yangilanishlar, ma'naviy qadriyatlar evolyutsiyasi va axborotlashgan jamiyatning shakllanish jarayonlarini tahlil etishda markaziy nazariy kategoriya sifatida qo'llaniladi.

Demak, transformatsiya — bu jamiyat va insonning ichki mohiyatini, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va faoliyat yo'nalishini tubdan o'zgartiruvchi, rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqadigan murakkab falsafiy va ijtimoiy jarayondir. Shaxs transformatsiyasi esa nafaqat individning ruhiy yoki ma'naviy yangilanishi, balki uning ijtimoiy tizimdagi o'rnining, qadriyat tizimining, dunyoqarashining o'zgarishi demakdir. Jamiyat transformatsiyasi esa ijtimoiy tuzilma, siyosiy institutlar, iqtisodiy tizim va madaniyat shakllarining yangilanishi orqali namoyon bo'ladi.

Nemis faylasufi Karl Yaspers (1883–1969) o'zining “Tarixning kelib chiqishi va maqsadi” asarida shunday deydi: “Inson faqat o'zini o'zgartirish orqali tarixni o'zgartira oladi. Jamiyatdagi har qanday burilish — bu shaxs ongidagi inqilobning natijasidir” [1,102]. Ushbu fikr transformatsiyaning ijtimoiy o'zgarishlar negizida yotuvchi shaxsiy yangilanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Yaspersga ko'ra, inson o'zining ichki mohiyatini yangilab borar ekan, jamiyat ham shu o'zgarishlarning in'ikosi sifatida yangi bosqichga o'tadi. Shu boisdan, transformatsiya insonning o'zini va dunyoni anglash jarayonidagi doimiy dialektik harakatni bildiradi.

Fransuz faylasufi Edgar Morin esa “Metod. Tabiatning tabiati” nomli asarida transformatsiyani murakkab tizimlarning o'zini o'zgartirish va o'zini tashkil etish xususiyati sifatida izohlaydi. Xususan u bu borada “Har qanday tizim transformatsiyaga uchramasa, u yemiriladi, o'zini saqlab qolish uchun u doimiy ravishda o'z tuzilmasini yangilab borishi lozim” [2,85] – deya alohida ta'kidlaydi. Bu g'oya jamiyat rivojlanishiga ham to'liq tatbiq etiladi, chunki ijtimoiy tizimlarning barqarorligi ularning transformatsion qobiliyatiga bog'liqdir. Morinning fikricha, zamonaviy jamiyatning transformatsiyasi texnologik o'zgarishlardan tashqari, insonning tafakkuri, axloqiy qarashlari va madaniy qadriyatlaridagi yangilanishni ham o'z ichiga oladi.

Amerikalik sotsiolog Talcott Parsons (1902–1979) o'zining “Ijtimoiy tizim” asarida jamiyatni murakkab o'zaro bog'liq tizim sifatida talqin etar ekan, ijtimoiy barqarorlik faqat transformatsiya orqali ta'minlanishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, “Tizim o'zining ichki muvozanatini saqlab qolish uchun muqarrar tarzda o'zgarishga, ya'ni o'zini moslashtirishga majbur” [3,250] dir. Parsonsning bu fikri transformatsiyaning ijtimoiy tizimlar evolyutsiyasidagi muhim rolini yoritadi. Jamiyat o'z tarkibiy qismlarining o'zgaruvchan muvozanati orqali rivojlanadi va transformatsiya bu jarayonning tabiiy mexanizmiga aylanadi.

Demak, transformatsiya shaxs va jamiyat rivojlanishining uzviy jarayoni bo'lib, u insonning o'zini anglash darajasining chuqurlashuvi, ijtimoiy tuzilmalarning yangilanishi, qadriyatlar tizimining o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi. Shaxs transformatsiyasiz jamiyatda haqiqiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas hamda jamiyat transformatsiyasiz shaxsning intellektual va ma'naviy kamoloti to'liq amalga oshmaydi. Shu sababli transformatsiya falsafaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida inson va jamiyat o'rtasidagi dialektik birlikni,

o'zgarish va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni tushuntirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karl Yaspers. "Vom Ursprung und Ziel der Geschichte". München: Piper Verlag, 1949.
2. Edgar Morin "La Méthode. La Nature de la Nature" Paris: Editions du Seuil, 1977.
3. Talcott Parsons "The Social System". New York: Free Press, 1951.